

O‘ZBEK TILI KORPUSI UCHUN TEZAURUS LUG‘ATLAR YARATISH ZARURIYATI

Gulhayo Po‘latova G‘ofurjon qizi

gpulatova2409@icloud.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada texnologiya jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan bir davrda o‘zbek tilining obro‘cini oshirish va dunyo miqyosida yoyish uchun qilinayotgan ishlar haqidagi fikr bildirilgan. Leksikografiya sohasiga kompyuter texnologiyalarining tatbiq etilishi elektron lug‘atlarga ehtiyojni oshirganligi va o‘zbek tilida tezaurus lug‘atlar tuzish zaruriyati ortib borayotgani dalillangan. Maqolada tezaurus lug‘atlarga tavsif berilgan, ularning afzalliklari va qulayliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kompyuter lingvistikasi, o‘zbek tili korpusi, elektron lug‘atlar, tezaurus lug‘atlar, internet lug‘atlar.

ABSTRACT

This article expresses an opinion about the work being done to increase the reputation of the Uzbek language and spread it on a global scale at a time when technology is developing at a rapid pace. It is proven that the application of computer technologies in the field of lexicography has increased the need for electronic dictionaries and the need to create thesaurus dictionaries in the Uzbek language is increasing. The article describes the thesaurus dictionaries, discusses their advantages and convenience.

Keywords: computer linguistics, Uzbek language corpus, electronic dictionaries, thesaurus dictionaries, internet dictionaries.

KIRISH

Jahon tilshunosligida XX asrning 60-yillarida paydo bo'lgan kompyuter lingvistikasi nutq amaliyoti uchun yangi metodologik asosni, tadqiqotning ustuvor yo'nalishlarini yaratdi. Ma'lumki, azaldan milliy til qadri, davlat tili ravnaqi, uni jahon tillari qatorida iste'molda bo'lishini ta'minlash masalalari ko'rib kelinmoqda. Keyingi yillarda bu siyosat darajasiga ko'tarilishi tilimizga davlat miqyosida e'tiborning nechog'li yuksak ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'zida jamlagan elektron ko'rinishdagi o'zbek tili milliy korpusini yaratish va o'zbek tilini Internet jahon axborot tarmog'ida ommalashtirish, dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalarini yaratish, o'zbek tilidagi matnlar tahririga mo'ljallangan kompyuter dasturlari hamda o'zbek tilidan jahonning yetakchi xorijiy tillariga va xorijiy tillardan o'zbek tiliga tarjima qiluvchi kompyuter dasturini yaratish bugungi zamon talablaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Texnologiya asrida taraqqiyot sur'atining tezlashgani, intellektual salohiyat, texnikaning yuqori darajada yuksalishi kishilik jamiyati oldiga qator vazifalarni qo'yimoqda. Mintaqamizdagi globallashtirish jarayoni barcha sohalarda tezkorlikni, jadal taraqqiyotni talab etmoqda. Kompyuter tizimi qulayliklar, imkoniyatlar majmuyiga va tarkibiy qismiga aylandi. Har xil turdagi elektron lug'atlar va tezaurus lug'atlarning yaratilishi leksikografiyaning rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda.[3]

Tezaurus atamasini L.V.Shcherba "Опыт теории общей лексикографии" maqolasida shunday yozadi: "Tezaurus deyishganda, hozirgi paytda ular ko'pincha "Thesaurus linguae latinae" ni nazarda tutadilar", ular beshta nemis akademiyasining korxonasi bo'lib, 1900-yilda boshlangan. Xarakterli xususiyati: ma'lum bir tilda ro'y bergan barcha hal qiluvchi so'zlarni o'z ichiga oladi va har bir so'z ostida, ushbu tilda mavjud bo'lgan matnlardan misollar keltiriladi. [Л.В. Щерба,1940:10]

A.N.Baranov va D.O.Dobrovolskiy "От редакции" kitobining muqaddimasida tezaurusga quyidagi ta'rifni bergan – "maxsus tur lingvistik materialni tartibga solish

usuli bilan boshqalardan (xususan, tushuntirish, ikki tilli va hokazo) farq qiladigan lugʻat. Tezaurusda til birliklari oddiy lugʻatda boʻlgani kabi alifbo tartibida berilmagan, lekin ularning maʼnosiga qarab guruhlangan”. [Добровольский, Баранова, 1965: 4]

Tezaurus yaratish borasida xorijda muhim tadqiqotlar olib borilgan. Ingliz tilidagi lugʻat-tezaurus, V.Dal tomonidan yaratilgan izohli lugʻat-tezaurus, T.F.Yefremovning rus tilidagi yangi soʻzlarning lugʻat tezaurusi, S.I.Ojegov, N.Y.Shvedova tomonidan yaratilgan rus tilining izohli lugʻati-tezaurusi, Fasmer Maksning rus tilining etimologik lugʻati-tezaurusi, yuridik terminlar tezaurusi yaratilgan.[1]

Oʻzbek tilshunosligida ham kompyuter leksikografiyasi yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Oʻzbek tilidagi har bir soʻzning tezaurus koʻrinishini ochib berish qiyin vazifa boʻlganligi sababli oʻzbek tilshunosligida fikrning mohiyatini ifodalaydigan, gapning markazini tashkil etuvchi feʼl soʻz turkumi yuzasidan soʻzlar jamlanib tadqiq etilgan.

Oʻzbek tilshunosligida tezauruslarning yaratilishida oʻzbek tili xususiyatlarini hisobga olish lozim boʻladi. Har bir til birligiga oid tushunchalar tezaurusini berishda ularning nutqdagi ahamiyatlilik darajasidan kelib chiqib yondashiladi. Turkiy tillarda, jumladan, oʻzbek tilida feʼllar fikr ifodalashda muhim oʻrin tutadi. Shu bois oʻzbek tilidagi feʼllar tezaurusini boshqa tillarga qiyoslagan holda yaratish tilning ijtimoiy funksiyasini oshirishda, axborot uslubini shakllantirishda va takomillashtirishda muhim oʻrin tutadi.[2]

MUHOKAMA

Inson va mashina (kompyuter)ning oʻzaro aloqa munosabatga kirishuviga asos boʻluvchi kompyuter lingvistikasida oʻzbek tilida ilovalar yaratish, matn tahririga oid kompyuter dasturlarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Oʻzbek tili korpusini yaratishda ana shunday muammolarga yechim boʻluvchi ilmiy tadqiqotlar olib borish allaqachon boshlab yuborilgan. Bunday ishlar zamirida elektron lugʻatlar

yaratish aktualigi bilan ahamiyatlidir. Elektron lugʻatlar nima va ularni yaratishning amaliy ahamiyati nimada?

Leksikografiya sohasiga kompyuter texnologiyalarining tatbiq etilishi lugʻat tuzish ishlarini ancha yengillashtiradi. Axborot manbalarini yigʻish boʻyicha maxsus dasturlar (Database Software) lugʻat asosini tashkil etuvchi barcha maʼlumot va misollarni jamlash va sistematik tarzda ishlov berishga qulaylik tugʻdiradi. Bundan tashqari, boshqa maxsus dasturlar lugʻatni tahrir qilish va chop etish borasidagi ancha mashaqqatli mehnatni bir qadar osonlashtiradi. Elektron lugʻatlar ham, oʻz navbatida, anʼanaviy lugʻatlarga qaraganda birmuncha afzalliklarga ega. Bugungi kunda, masalan, ABBY LINGVO kompaniyasining lugʻat va tarjima dasturlari ulardan foydalanuvchi har bir xaridorga oʻz lugʻatini tuzish yoki mavjud lugʻat soʻz boyligini toʻldirib borish imkonini beradi. Ochiq turdagi Internet lugʻatlari (online lugʻatlar) ham koʻp hollarda barcha foydalanuvchilarga ushbu lugʻatlarni boyitish uchun imkon beradi. Shuningdek, quyida keltirilgan jihatlari elektron lugʻatlarning optimalligini taʼminlaydi:

- hajm jihatidan ixchamligi, kompaktiligi, boshqa manbalarga (internet tarmogʻi orqali, giper-murojaatlar yordamida) ulanish imkoniyati,
- mavjud matnlar yordamida illyustrativ misollar tuza olish imkoniyati, multimedia tasvirlari bilan boyitilganligi.

Hozirgi davrda nafaqat kompyuter lingvistikasida, balki umuman tilshunoslikda ham elektron lugʻatlar bilan bir qatorda, tezaurus lugʻatlar va ularni takomillashtirish boʻyicha ham qator ilmiy ishlar olib borilmoqda.[4]

Tezaurus (thesauros) grek tilidan olingan boʻlib, “xazina” maʼnosini anglatadi. Tezaurus termini ikki xil maʼnoda ishlatiladi: 1) lingvistik tahlillarga asoslangan toʻliq maʼlumot yoritilgan lugʻatlarni; 2) inson yoki hisoblash mashinalarida bilimlarning muayyan sohasiga taalluqli tizimlashtirilgan axborotlar majmuyini ifoda etadi.

Tezaurus tarkibidagi soʻzlar alfavit boʻyicha emas, balki mavzu va mavzular majmuyi sifatida shakllangan lingvistik lugʻat hisoblanadi. Tezaurus – soʻzlar va soʻz

birikmalari o'rtasidagi turli bog'lanishlar (munosabatlar) haqidagi axborotlarni saqlashga xizmat qiluvchi ma'lumotlar bazasidir. Tezaurus aslida nafaqat voqelik haqidagi axborotni, balki yangi ma'lumotlarni qabul qilib olish imkoniyatini yaratuvchi metainformatsiyani (axborot haqidagi ma'lumotlarni) ham qamrab oladi.

Izohli lug'atdan farqli ravishda tezaurus tushunchani izohlabgina qolmay, uning sun'iy intellekt doirasida faol qo'llanadigan boshqa tushunchalar va shu tushunchalar guruhiga munosabatini ham aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda tezaurus informatsiya (axborot) nazariyasida subyekt egallagan barcha ma'lumotlarning majmuasi sifatida ham qo'llanadi. Tezaurus korporativ kommunikatsiyaga ham yordam beradi. Korporativ kommunikatsiya — kompyuter lingvistikasiga o'xshash, soddaroq qilib aytganda bitta kasb yoki bir xil tartib-intizom bilan bog'liq insonlar o'rtasidagi muloqotlarning, munosabatlarning asosi sanaladi.[4]

NATIJALAR

Tezaurus lug'atlar bir so'z semantikasi bilan bog'liq barcha belgilarni qamrab oladigan, matnda qo'llanish xususiyatlarini to'liq aks ettiradigan kompyuter lug'atidir. Tezaurus giperhavola vositasida boyitilgan katta hajmdagi ma'lumotlar bazasidir.

Xususan, "qora" leksemasining barcha ma'noviy semalarini yig'ib, quyidagicha tezaurusni ishlab chiqdik: **QORA**

№	Tezaurus qolipi	So'zning semantik pasporti
1.	So'zning yoki til birligining morfologiya va sintaksisga aloqadorligi:	O'zbek tilida rang ma'nosidagi qora so'zi tezaurusini ko'rib chiqamiz. Qora – rang-tus bildiruvchi sifat.
2.	Talaffuz qilinishi:	qora
3.	Semantik tarkibi:	A) <i>so'zning asl ma'nosi</i> : Rang-tusi mavjud ranglarning barchasidan to'q; qozonkuya, ko'mir tusidagi; B) ko'chma ma'noda: Umuman, salbiy belgini, salbiy belgiga egalikni bildiradi; yomon. Qora niyat. Qora kuchlar.

		<p><i>ko'chma esk.</i></p> <p>Ma'lum miqdordagi yaxlit summa. Bir qora cho'zsak, kifoya deb o'ylayman, ozmi, ming so'lkavoy.</p> <p>Oybek, "Ulug' yo'l"</p> <p>C) sinonimi: qoramtir</p> <p>D) omonimi: –</p> <p>E) antonimi: oq</p> <p>F) paronimi: –</p> <p>G) giperonimi: rang-tus</p>
4.	Yaqin ma'nodagi so'zlar:	qora dog', qora niyat, qora ro'yxat, qora xalq, qora ish, qora granit, qora dona (shaxmat), qoramol.
5.	Etimologiyasi:	turkiy "katta"
6.	Frazeologizmlarda qo'llanilishi:	<p>Akangizga qora yuqtirmaslik uchun O'ktamni ham oqlayapsizmi endi?</p> <p>S. Zunnunova, "Ko'zlar". Men sizni qora tortib keldim, O'rmonjon aka.</p> <p>A. Qahhor, "Qo'shchinor chiroqlari"</p>
	Birikmalar tarkibida:	<p>Poyezdning qorasi o'chguncha mo'ltirab qarab turdim, keyin yig'lab-yig'lab, izimga qaytdim. S.Siyoyev, "Yorug'lik".</p> <p>Demak, yuzimning bir tomoni kundek yorug'-u, bir tomoni tunde k qora ekan.</p> <p>X. To'xtaboyev, "Shirin qovunlar mamlakati".</p>
7.		<p>turkcha: kara, siyah</p> <p>inglizcha: black</p> <p>ruscha: чёрный</p>

XULOSA

Yuqorida tezaurus yuzasidan keltirilgan nazariy ma'lumotlarga tayanib, shunday xulosaga kelish mumkin:

– tezaurus, ayniqsa, elektron formatdagi tezaurus har bir sohaga doir so'zlarni to'liq ochib beradigan lug'atlardan biri sanaladi. Bunday lug'atlarning o'zbek tilida elektron formatdagi ko'rinishi insonning vaqtini tejash, bir so'z haqida to'liq ma'lumot olish imkonini beradi;

– tezaurus lugʻatda har bir soʻzning sinonimi, antonimi, etimologiyasi, omonimi va u bilan birika oladigan soʻzlar qatori ochib beriladi. Tezaurus, birinchi navbatda, soʻzlar va ularning matndagi qoʻllanishiga doir misollar izohlangan maksimal darajada toʻliq lugʻat hisoblanadi. Oʻzbek tilida yaratilgan bunday lugʻatlar oʻzbek tilini oʻrganuvchi xorijliklar uchun qulay imkoniyat yaratadi;

– kompyuter lingvistikasi har bir tilning oʻziga xos tabiatini hisobga olib, muayyan tilning fonetik, leksik, grammatik sathlariga oid masalalarni mashina yordamida hal qilish vazifasini qoʻygandagina lingvistik taraqqiyot omili boʻla oladi. Shuningdek, turli xil lugʻatlar va tezauruslarga ham kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish bugungi kundagi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu esa, nafaqat til ixlosmandlari, balki adabiyotshunos va dasturchilarni ham yangi ilmiy izlanishlar qilishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Poʻlatov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (oʻquv qoʻllanma). – Toshkent, 2007, 2008, 2009..
2. Qurbonova F. Kompyuter lugʻatlari: tezaurus. – T, 2014.
3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati 1-tom.
4. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. Toshkent – 2020 . “Asian Book House” 81-bet.